

AYBSIZLIK PRIZUMPSIYASI TUSHUNCHASI, KELIB CHIQISHI VA UNING HUQUQIY TIZIMDAGI O'RNI.

*Qo'qon davlat pedagogika insituti. Tarix fakulteti MG'MAHT yo'nalishi
2-bosqich talabasi Vahobov Shahbozbek Bobomurod o'g'li.
@shaxboz_vahobov [90] 868-64-04*

Anotatsiya. Aybsizlik prizumpsiyasi ko'plab mamlakatlar qonunchiligiga kiritilgan bo'lib unga ko'ra xali sudda ayblanuvchining aybi isbotlanmagunga qadar u aybdor deb hisoblanmaydi. Shuning uchun bu tushunchani insonlarning asosiy huquqlari qatoriga kiritish mumkin qolaversa bu tushuncha xalq demokratiyasining asosiy belgilaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Prizumpsiya, umumiy prinsip, ayblanuvchi, shaxsiy huquq, protsess, sudlanuvchi, demokratiya.

Bilamizki hozirgi kunda ko'plab davlatlar huquqiy tizimida demokratik tamoyillarga amal qiladi aynan demokratik davlatlar o'z qonunchiligiga demokratik huquqlar bilan birgalikda aybsizlik prizumpsiyasini yaxlit holatda kiritgan. Bu maqolada aybsizlik prizumpsiya tushunchasi o'zi nima, u nimaga kerak va uning kelib chiqishi haqida mulumotlar keltiriladi.

Aybsizlik prezumpsiyasi (lotincha: praesumptio – taxmin, gumon so'zidan olingan) – shaxsning huquqlarini himoyasini ta'minlovchi, asossiz ayblash va jazolashning oldini oluvchi jinoyat protsessining ko'plab davlatlarda tarqalgan umumiy demokratik tamoyillardan biri hisoblanadi. Aybsizlik prezumpsiyasi – aybdorning jinoyati qonuniy tartibda sudda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilishdir. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas yoki o'zini aybdor deb ko'rsatsa ham qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlanmaguncha u aybdor deb topilmaydi. Aybsizlik prezumpsiyasi sudya, tergovchi yoki prokurorning shaxsiy fikrini bildirmaydi, xolis huquqiy holatni anglatadi. Tergov organlari shaxsga ayb qo'yish bilan uni ayblanuvchi deb hisoblashlari mumkin lekin hali uning aybdorligini isbotlash lozim bo'ladi bu tergovchilardan sinkovlik va chuqur yondashuvni talab etadi. Qonunga muvofiq, shaxsning aybdorligini belgilash ayblanuvchining qonuniy huquq va manfaatlari va ayblov dalillarining tekshirilishi samarali darajada kafolatlanadigan sud bosqichida ishni ko'rib chiqish orqali amalga oshirilishi kerak. Ayblanuvchi ayblov hukmining e'lon qilinishi va uning qonuniy kuchga kiradigan vaqtigacha aybsiz hisoblanadi.

Aybsizlik prezumpiyasida isbotlanishi mumkin bo‘lmagan barcha gumonlar ayblanuvchining foydasiga xal bo‘lishi kerak, ya’ni bironing jinoyat qilganlikdagi aybdorligi isbotlanmasligi uning aybsizligining isbotlanishidir

Har bir tushunchaning kelib chiqish tarixi shunday ekan aybsizlik prezumpiyasini ham kelib chiqish tarixiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Aybsizlik prezumpiyasining ilk belgilari qadimgi yahudiy qonunlarida bo‘lgan. Shuningdek, qadimgi Rim huquqi bilan ham bog‘langan bo‘lib, u XII asrda Italiyada aybsizlik prezumpiyasi rasman amal qilgan. Bu davrda aybsizlik prezumpiyasining qo‘llanilishi bugungi mukammal holatida talqin etiladigan darajada keng bo‘lmagan. Ya’ni, hamma ham bu huquqdan foydalana olmagan asosan zodagonlar o‘z mablag‘lari evaziga bu huquqdan ko‘proq foydalanishgan. Prezumpsiyaning bu shakli tanlov evaziga olingan prezumpsiya deb ham atalgan. Undan faqat sharaflil, namunali hayot kechirgan hamda yaxshi xulq-atvori bilan tanilgan zodagon insonlar, asosan, jamiyatning obro‘li vakillari foydalana olgan, halos. Tanlov prezumpsiyasining mazkur cheklangan funksiyasi kontinental Yevropa huquq maktabida shakllangan. Bunga qarshi o‘laroq, aybsizlik prezumpsiyasining barcha uchun teng bo‘lishi kerakligi haqidagi nazariya Kalonial huquqda vujudga kelgan. Mazkur huquqiy maktab vakillari o‘z qarashlarini inson fikran gunohsiz bo‘ladi, shuning uchun prezumpsiyani barchaga qo‘llash kerak, deya asoslashgan. XV asrga kelib, Italiyaning o‘zida aybsizlik prezumpiyasi barcha uchun teng umumiy prinsip ekanligi e’tirof etila boshlagan.

Shuningdek, Infiliz-Amerika huquqiy oilasida ham aybsizlik prezumpiyasi parallel tarzda rivojlanib borgan. Aybsizlik prezumpsiyasining bugungi kundagi qiyofasi uyg‘onish davriga kelibgina aniq shaklga ega bo‘ldi. U qonuniy prinsip sifatida ilk marotaba 1789-yilda qabul qilingan Inson huquqlari to‘g‘risidagi Fransiya deklaratsiyasida o‘z ifodasini topdi. XVIII asrning 2-yarmida aybsizlik prezumpiyasi Fransiyada har bir insonga kafolatlangan asosiy konstitutsiyaviy huquq sifatida to‘la e’tirof etila boshladi.

Yangi davrga kelib yani inson huquqlarini birinchi darajaga olib chiqqan xalqaro hujjatda ham bu huquq belgilab qo‘yiladi. Bu deklaratsiya 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan inson huquqlarining asosiy kafolati bo‘lgan hujjat edi– Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 11-moddasida ham aybsizlik prezumpiyasi prinsipi mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra, jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta’minlangan holda, ochiq sud majlisi yo‘li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir. Bu moddaning zamirida ushbu fikr turadi yani “Isbotlanmagan ayb - isbotlangan aybsizlikka teng” Mazkur xalqaro huquqiy normada ham bu huquqning mustahkamlab qo‘yilishi uni yanada kengroq yoyilishiga va uni xalqaro standart qilib qo‘yilish va eng muhim jahon tashkiloti bo‘lgan BMT tomonidan qabul qilinishi katta

hodisadir shu sababdan bu huquq tamoyili jahonda yana ham kengroq tarkib topa boshladi va ko‘plab huquqiy davlatlar bu tizimni o‘z qonunchiligiga integratsiya qildilar. Xuddi shunday davlatlardan bir O‘zbekiston bo‘ldi yani yangi qabul qilingan xalqchil konstitutsiyamizning 28-moddasiga ushbu ko‘rinishda muhrlandi yani "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha u aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar taminlanadi. Aybdorlikga oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga xos bo‘lgan shani va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega" Ushbu jumalalarda bilish mumkinki aynan aybsizlik prezumpsiyasini huquqiy davlat qonunchiligining ajralmas qismi va uning qonunchiligi demokrati tamoyillarga mos kelishini ochib beruvchi asosiy tushunchalardandir. Shuning uchun ham ko‘plab davlatlarda bu tushuncha oliy tamoyil sifatida ko‘rib konstitutsiyalarida mustahkamlab qo‘yildi yani bir narsani takidlash kerakki bu qonunlar qachonki fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyat yetarli bo‘lsagina yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- 2.O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi.
- 3.Behzod Mamadiev. Aybsizlik prezumpsiyasi: Tarixi va talqini.
- 4.<https://uzmarkaz.uz/yangi-tahrirdagi-konstitutsiyada-aybsizlik-prezumpsiyasining-mustahkamlanishi>
- 5.https://enc.for.uz/wiki/Aybsizlik_prezumpsiyasi.